

Dusanova Sh.B.,
geografiya fanlari nomzodi , dotsent
Bozorboyeva Sh.,
geografiya yo'nalishi magistranti
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Geografiya kafedrası
O'zbekiston
Дусанова Ш.Б.,
кандидат географических наук, доцент
Бозорбоева Ш.,
магистрант направления «География»
Ургенчский государственный университет имени Абу Райхона Беруни
Кафедра географии
Узбекистан
Dusanova Sh.B.,
Candidate of Geographical Sciences, Associate Professor
Bozorboyeva Sh.,
Master's student in Geography
Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni
Department of Geography
Uzbekistan

YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun yoshlarida ekologik ong va madaniyatni shakllantirish, ularni tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish, noyob tabiatni asl holicha avlodlar uchun asrab-avaylash hissini oshirish orqali atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirning oldini olish masalalari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Suv toshqinlari, zilzila, yer osti boyliklari, suv, hayvonot va o'simliklar dunyosi, o'rmon, pedagogik mahorat.

ПОВЫШЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы предотвращения негативного воздействия на окружающую среду путем формирования экологического сознания и культуры у современной молодежи, обучения ее бережному отношению к природе, повышения чувства сохранения уникальной природы для будущих поколений.

Ключевые слова: Наводнения, землетрясения, подземные ресурсы, вода, животный и растительный мир, лес, педагогическое мастерство.

IMPROVING ECOLOGICAL CULTURE AMONG YOUTH

Abstract. This article addresses the issues of preventing negative impacts on the environment by creating environmental awareness and culture among today's youth, teaching them to be careful about nature, and increasing the sense of preserving unique nature for future generations.

Key words: Floods, earthquakes, underground resources, water, animal

and plant world, forest, pedagogical skills.

Kirish. Bugungi kun yoshlarida ekologik ong va madaniyatni shakllantirish, ularni tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish, noyob tabiatni asl holicha avlodlar uchun asrab-avaylash hissini oshirish orqali atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirning oldini olish mumkin. Buning uchun yoshlar ongida ona yer, ona tabiat, ona Vatanga, uning tabiiy boyliklariga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usini yanada rivojlantirishimiz lozim. Aytish mumkinki, agarda umumiy ta'lim jamiyat rivojida zarur tayanch bo'lsa, ekologik ta'lim-tarbiya va madaniyat har qanday mamlakatda insonlarning to'laqonli sog'lom turmish kechirishi uchun zarur bo'lgan atrof-muhit sharoitiga muhim kafolatidir. Bu kafolat mamlakat taraqqiyoti, davlat mustaqilligi, sog'lom turmush tarzi, millatlararo ekologik aloqalar, ekologiya borasida insonlarning huquqlarini ta'minlashga, majburiyatlarni bajarishga shart-sharoit yaratadi.

Ekologik ta'lim-tarbiya berishda tarixiy merosdan samarali foydalanib, ularni bugungi zamon talablari bilan bog'liq holda yoshlar ongiga singdirish ham muhimdir. Chunki hozirgi kunda insoniyatning tabiatga nisbatan salbiy munosabatlari oqibatida dunyoning bir burchida suv toshqinlari, zilzilalar ro'y berayotgan bo'lsa, boshqa joyida o'rmon yong'inlari kuzatilayapti. Bu kabi global muammolar tabiat boyliklaridan ekologik omillar hisobga olinmagan holda foydalanish natijasida o'tgan asrning ikkinchi yarmida avj ola boshlagan edi.

Asosiy qism. Qayd etish joizki, uzoq yillar mobaynida tabiatga yetkazilgan ta'sir oqibatida tabiiy muvozanatga putur yetdi. Bugungi kunga kelib esa, insoniyat tamadduni, uning ertangi taqdiri aynan shunday masalalarni hal etishni taqozo qilmoqda. Shu sababli xam aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish, tabiat ne'matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish antropogen ta'sirlarning oldini olish shu kunning dolzarb masalalaridan biri deyish mumkin [1].

Chunki, ekologik ta'lim-tarbiya tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, ekologik ta'lim-tarbiya yoshlarni tabiatdan ongli ravishda foydalanish va ular qalbida tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish hamda tejamkorlikka o'rgatishda qo'l keladi. Albatta, yosh avlod qalbida tabiatga nisbatan hurmat hissini shakllantirish va rivojlantirish muhim masalalardan sanaladi. Bu, o'z navbatida, pedagog kadrlar zimmasiga katta mashuliyat yuklaydi.

Tabiat boyliklaridan unumli foydalanish, ularni muhofaza qilish masalalarini ongli ravishda hal etish uchun oila, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab bolalarda tabiatga mehr-muhabbat ruhini shakllantirish, ekologiyaga oid bilimlarni ular shuuriga singdirish darkor.

Oilada ekologik ta'lim quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:

- ✓ bolalarni tabiat go'zalliklaridan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash;
- ✓ ota-onaning g'amxo'rliги va bevosita harakati ostida bolalarning ekologik madaniyatini oshirish;
- ✓ tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabat hamda insonning tabiatga ta'siri masalasini o'rgatish;
- ✓ inson tabiatning ongli bir mahsuli ekanligi va barcha qonunlarga amal qilishi lozimligini anglash;
- ✓ barcha tabiat boyliklari bo'lgan yer, yer osti boyliklari, suv, hayvonot va o'simliklar dunyosi, o'rmon va havodan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza etish zarurligini uqtirish;

Shu bilan birgalikda sodir etilgan yoki sodir etilishi mumkin bo'lgan ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurashish hamda ularning oldini olish shart ekanligini o'rgatish keng tushuntirish, maqsadga muvofiqdir [3]. Bu esa oilada ekologik ta'lim-tarbiya olib borilishi yoshlarni atrof tabiiy muhit va uning boyliklarini sevishtirishga, muhofazalash hamda bundan oqilona foydalanishdagi dastlabki ekologik ongini, taffakurini hamda tushunchalarini shakllantirishga yordam beradi.

Yoshlar qalbida ekologik madaniyatni singdirishda, azaliy qadriyatlarimizdan bo'lmish umumxalq hasharlarini o'tkazish va ularga yoshlarni ko'proq jalb etish ayni muddao. Umuman olganda, o'quv yurtlari, oila, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida yoshlarning uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiyasi borasida samarali tizimni yaratish bugun zimmamizdagi eng muhim vazifalardan biridir [2]. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga bag'ishlangan turkum ko'rsatuv, eshittirishlar, ijtimoiy- ekologik roliklarni muntazam efirga uzatib borish, vaqtli matbuot nashrlarida maqolalar chop etish orqali targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish ham aholining ekologik madaniyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Zero, o'sib kelayotgan yosh avlod tabiat haqidagi bilimlarni egallab, tevarak atrofning nozikligini, uning go'zalliklarini qalban his qila olsagina, ona-Vatanga, uning tabiatiga muhabbati oshadi. Ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida o'quvchilar ongini hozirgi ekologik muammolar mohiyatini ochib beruvchi bilimlar bilan boyitish va shu bilimlarni ularning amaliy faoliyati, ijtimoiy mehnati bilan mustahkamlab borish maqsadga muvofiq. Bunday mashuliyatli vazifani hal qilish uchun o'qituvchidan shu soha bo'yicha bilimga, pedagogik mahoratga, yuksak ekologik madaniyatga ega bo'lish, shuningdek, tinimsiz izlanish, o'rganish talab qilinadi.

Hali yurtimizda tabiatni muhofaza qilish, boyliklaridan oqilona foydalanish borasida hal etilmagan muammolar mavjud. Ularni bartaraf qilish aholining tabiat muhofazasi, geografik qonuniyatlar haqidagi bilim darajasiga ko'p jihatdan bog'liq. Yoshlarning ekologik tarbiyasi yuqori, bilim darajasi yetuk bo'lsa, tabiatdan foydalanish madaniyati ham shunchalik ortadi. Demakki, bu boradagi zarur bilimlarni o'rganish, ularga qat'iy amal qilish va salbiy o'zgarishlarning oldini olish hozirgi kunda eng dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дусанова Ш.Б., Қўчқорова Г.Б.- Талаба ёшларда соғлом турмуш тарзини шакллантиришда экологик маданиянинг ўрни. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Гулистон. 2022 й.
2. Исмаилов А, Аҳадов Р. Экологик таълим-тарбия. Т., 1997 й.
3. Эргашев А, Эргашев Т Экология, биосфера ва табиатни муҳофаза қилиш. Янги аср авлоди. Тошкент 2005 й.